

DOPING-TEST SINOVLARI

DOPING-TEST TOPSHIRISHDA SPORCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Sportchining vakili qatnashishiga va zaruriyat bo'lganda tarjimon qatnashishiga; doping-nazorat uchun namuna olish tartibiga taalluqli qo'shimcha axborot olishga; doping-nazorat ofitseri rozligi bilan uzrli sababga ko'ra doping-nazorat joyiga yetib kelish vaqtini kechiktirishni so'rashga, lekin bunda doimo doping nazorat xizmati xodimining kuzatuvi ostida bo'lishi; imkoniyatlari cheklangan sportchilar namuna olish tartibini o'zgartirish huquqiga egadir.

SPORTCHINIING MAJBURIYATLARI

Doping-nazorati jarayonida doping ofitserining kuzatuvi ostida bo'lish; sportchi shaxsini tasdiqlovchi tegishli hujjatni taqdim qilishi; doping sinama topshirish uchun doping-nazorat joyiga darhol yetib kelishi shart.

SPORTCHI UCHUN AXBOROT

Doping sinama olish jarayonining barcha qoidalariga rioya qilmaslik yoki doping sinama taqdim qilishdan bosh tortish dopingga qarshi qoidalar buzilishiga sabab bo'ladi. **ESLATMA:** doping sinama topshirishdan oldin ko'p ovqat yoki suyuqlik iste'mol qilmaslik kerak. Sinama uchun topshirayotgan namuna doping-nazoratidan o'tish to'g'risida xabarlamadan so'ng peshobning birinchi namunasi bo'lishi kerak. Namuna topshirganga qadar dush qabul qilish va hojatxonaga borish man etiladi.

Sinama topshirishga sinama olish uchun sig'imni tanlash sig'imning o'ramini butligi hamda tozaligini tekshirish va 90 ml dan kam bo'lmagan peshobni taqdim qilish kerak. Doping ofitseri test olish jarayonini bevosita nazorat qilishi lozim. Sinama tanlashdagi guvoh hamda doping ofitseri - sportchi bilan bir jinsga mansub bo'lishi kerak. Namuna olish uchun A va B markalangan probirkadan iborat uskuna to'plami (konteyner) bo'lishi, qutidagi barcha narsalarni olish, A va B probirkalarning qopqoq va qutining o'zidagi raqamlar bir xil ekanligiga, zich yopilganligiga hamda tarkibida begona narsalar mavjud emasligiga ishonch hosil qilish kerak. Sig'im ichidagi sinamaning 30 ml avval B probirkaga, keyin esa kamida 60 ml A probirkaga quyiladi. Doping ofitseri peshobning nisbiy zichligini tekshiradi. Agar peshob zichligi kerakli me'yorga mos kelmasa, yaqin vaqt ichida qo'shimcha peshob namunasini takroran topshiradi. Doping ofitserlari sinama olish uchun kelganda qaysi antidoping agentlikdan ekanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilishini so'rashi kerak.

UzNADA

TERAPEVTIK ISTISNOGA MUHOJATNOMA / THERAPEUTIC USE EXEMPTIONS

Ўзбекистон Миллий антидопинг агентлиги / Uzbekistan National Anti-Doping Agency

TUE

TERAPEVTIK ISTISNO (TI) UCHUN MUHOJATNOMA SHAKLI
THERAPEUTIC USE EXEMPTIONS (TUE) APPLICATION FORM

Murojatkatnoma shaklining barcha qismlari bosma harflar bilan tuzilgan. Sportchi 1, 2, 3 va 7-чи қисмларни, шифор 4, 5 ва 6 қисмларни тўldириши лoзим. Нoвoнq бoл нoтўldирилгaн мурожаатнoма тaлaб дaрaжасидa тўldириб тақдим этиш учун мурожаатчaгa қaйта ебoрeтлaди.
Please complete all sections in capital letters or typed. Athlete to complete sections 1, 2, 3 and 7; Physician to complete sections 4, 5 and 6. Regable or incomplete applications will be returned and will need to be re-submitted in legible and complete form.

1. Спортчи тўғрисида маълумот / Athlete information

Фамилияси / Surname:		
Иsmи / Given Name:		
☐ Эркак / Male	☐ Айал / Female	
Тутилган санаси (kelo/ийай) / Date of birth (dd/mm/yyyy):		
Тураш уин, кучаси / Address:		
Шаҳар / City:	Country:	
Мамлакат:		
Индекс / Postcode:		
Телефони (халқаро коди билан) / Telephone (with international code):		
Эл. почта / E-mail:		
Спорт	тури	Спорт
Спорт	дисциплинаси	Discipline:

2. Аввалги мурожаатлар тўғрисида маълумот / Previous applications

Саломатлигинизнинг мазкур ҳолати озаъсдан аввал бошa Антидопинг ташкилотига TI мурожаатнамасини берганимиз? / Have you submitted any previous TUE application(s) to any Anti-Doping Organisation for the same condition?	
☐ Ha / Yes	☐ Йoқ / No
Қайси модда(лар) ёки услуб(лар)га? / For which substance(s) or method(s)?	
Қайси ташкилотга? / To whom?	
Қачон?	

119

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ANTIDOPING AGENTLIGI



ANTIDOPING TA'LIM
DASTURLARI



ADAMS TIZIMI



TERAPEVTIK
ISTISNO



DOPING
NAZORATI



MUHOJATNOMA
MANZILLARI



www.uznada.uz

ANTIDOPING TA'LIM DASTURLARI

DOPING HAQIDA MA'LUMOT

Dope inglizchada - narkotik berish ma'nosini anglatadi, ya'ni sport ko'rsatkichlarini sun'iy yaxshilashga imkon beradigan tabiiy va sintetik moddalar yoki usullardan foydalanish deganidir. Bunday moddalar gijohvand moddalar emas, lekin qisqa vaqt ichida asab va endokrin tizimlar faolligini va mushaklar kuchini keskin oshirishi mumkin. Bunday dori va qo'shimchalar - jiddiy kasalliklarni keltirib chiqaradi. Murabbiy, ota-onalar va shifokor - sportchiga har qanday dori vositalari yoki biologik faol qo'shimcha (BFQ)larni iste'mol qilishidan xabardor bo'lishi va sportchiga halol sportga rioya qilishda ko'maklashishi.

SPORTCHINING MAJBURIYATLARI

Asosiy vazifasi - dopingga qarshi bo'lish; antidoping qoidalarini bilish va ularga rioya qilish; har qanday vaqtda namuna olish uchun tayyor bo'lish; antidoping qoidalarida ko'rsatilganidek sportchi nima iste'mol qilayotgani va qo'llayotganligi uchun javobgar bo'lishini bilishi bilan bir qatorda ta'qiqlangan moddalar va usullardan foydalanmasligi kerak. Har qanday tibbiy yordam antidoping qoidalariga muvofiq qabul qilinishi kerak. Butunjahon antidoping kodeksi xalqaro standartlar va dopingga qarshi milliy qoidalariga rioya qilishi lozim.

SPORTCHINING HUQUQLARI

Sportchi antidoping qoidalarini buzilishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa, yoki kimdandir shubha qilsa zudlik bilan O'zbekiston Milliy antidoping agentligiga xabar berish; antidoping qoidalarining buzilishi to'g'risidagi da'volarni xolisona ko'rib chiqish; antidoping qoidalarini buzganlik ayblovini qo'llanilgan sanksiyalar bo'yicha apellyatsiya arizasini berish huquqiga ega.

MURABBIY VA TIBBIYOT HODIMLARINING MAJBURIYATLARI

Antidoping qoidalarini bilish va ularga rioya qilish; sportchilar uchun sinov dasturlarini amalga oshirishda hamkorlik qilish; dopingga nisbatan qarshi muhitni yaratish; sportchining qarashlariga va hatti harakatlarga ta'sir etadigan tomonlarni o'rgatish; dopingga qarshi kurashni targ'ib qilishda va dopingni oldini olishda ko'rgazmali materiallardan foydalanishi lozim.

ANTIDOPING QOIDA BUZARLILIKLARI

Ta'qiqlangan modda yoki uning metabolit belgisining sportchidan olingan sinamada mavjudligi; sportchi tomonidan ta'qiqlangan modda yoki usuldan foydalanish yoki foydalanishga harakat qilish; doping-test topshirishdan bosh tortish, qarshilik ko'rsatish yoki testga qasddan qatnashmaslik; sportchining ADAMS tizimida ma'lumot taqdim etish tartibini buzishi; sportchi yoki vakili tomonidan doping nazorat jarayonini soxtalashtirish; sportchi yoki vakili tomonidan ta'qiqlangan moddaga ega bo'lish; sportchi yoki vakili tomonidan ta'qiqlangan modda tarqatish yoki tarqatishga harakat qilish; sportchiga ta'qiqlangan modda yoki usulni tavsiya qilish yoki tavsiya qilishga harakat qilish; antidoping qoidabuzarligida hamkorlik qilish, uyushtirish; sanksiya muddatini o'tayotgan sportchi bilan hamkorlik qilish.

edu@uznada.uz

ADAMS TIZIMI

ANTIDOPING QOIDABUZARLIK LARI MONITORINGI

ADAMS (antidoping qoidabuzarliklari monitoringi): Sportchini kunlik ma'lumotlarini to'plash va saqlash uchun onlayn dastur. Sportchi shaxsiy profiliga ega bo'lib, unda uning turgan joyi, doping-testlar va ularning natijalari, dori larni terapevtik qo'llash uchun ruxsatnomalari joylashtiriladi. Tizimdan foydalanish: Sportchi va uning vakili (murabbiy, shifokor, jamoa menejeri); O'ZMADA mutaxassis lari, mintaqaviy antidoping tashkiloti mas'ul xodimi, xalqaro sport federatsiyalari va tashkilotlari, O'zbekiston sport federatsiya (assotsiatsiya)larining xalqaro sport tadbirlarining tashkilotchilari; Butunjahon antidoping agentligi; Butunjahon antidoping agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan antidoping laboratoriyalari foydalanishi mumkin.

ADAMS TIZIMIDA SAQLANADIGAN MA'LUMOTLAR

Sportchi o'z turgan joyi to'g'risida noto'g'ri ma'lumot bergani yoki tizimda ko'rsatilgan manzilda bo'lmaganligi sababli Butunjahon antidoping kodeksiga asosan, 12 oy davomida shaxsiy ma'lumotlarni to'ldirishda ADAMS qoidalarining 3 marotaba buzilishi antidoping qoidalarini buzgan deb hisoblanib, 2 yilgacha diskvalifikatsiya jazo chorasini qo'llaniladi. ADAMS tizimida sportchining joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotni sportchi va uning vakili kiritishi mumkin. Milliy va xalqaro test ro'yxatiga kiritilgan sportchilar milliy test ro'yxatidan chiqarib yuborilishi to'g'risida xabardor qilinmaguncha bu tizimda qolishlari lozim. Sportchi tegishli xalqaro sport federatsiyasi tomonidan chetlatilganligi to'g'risida xabardor qilinmaguniga qadar xalqaro sinov ro'yxatida saqlanib qoladi.

JOYLASHUV TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNI TAQDIM ETISH

Ma'lumotlar har chorak boshlanishidan avval keyingi chorak boshidan oldingi o'yni ning 25-kunidan oldin taqdim etiladi. Xalqaro test ro'yxatiga kiritilgan sportchilar uchun tegishli xalqaro federatsiyalar tomonidan aniq sanalar belgilanadi. Sportchi keyingi chorakning barcha 3 oyi davomida rejalashtirilgan joyi to'g'risida ma'lumot berishi va kunlik joylashuv manzili, bir soatlik oralig'i haqida ma'lumotlarni kiritib borishi lozim.



TERAPEVTIK ISTISNOLAR



Sportchilar turli dori vositalarni iste'mol qilish yoki davolash usullarini qo'llashni talab etuvchi kasalliklari va holatlar bilan xastalanishlari mumkin. Agar ushbu kasallik yoki holatni davolash uchun sportchi Butunjahon antidoping agentligining taqiqlangan ro'yxatiga kiritilgan modda yoki usuldan foydalanishi zarur bo'lsa, terapevtik istisnolari rasmiylashtirish orqali sportchi musobaqa davrida zarur bo'lgan modda yoki usuldan foydalanishi mumkin bo'ladi va bu vaziyatda sportchi antidoping qoidabuzarlikda ayblanmaydi hamda unga nisbatan hech qanday jazo chorasini qo'llanilmaydi. Terapevtik istisno ruxsatini olish uchun arizalar malakali shifokorlaridan iborat.

Terapevtik istisnolar bo'yicha komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.



**Sportda bazi taqiqlangan moddalar
terapevtik istisno bilan qonuniy
tarzda qabul qilinishini mumkin!**

Butunjahon antidoping agentligi xalqaro terapevtik istisnolar bo'yicha standartning 4.2-moddasiga asosan quyidagi 4 tamoyil mavjud bo'lishi shart:

Ushbu taqiqlangan modda yoki usuldan foydalangan holda davolanish zarur bo'lgan kasallik sportchida mavjudligi aniqlansa;

davolash maqsadida qo'llangan, barcha ehtimollarni hisobga olgan holda sportchining odatdagi natijadorligi yoki ishchanligini sezilarli darajada yaxshilashiga olib kelmashligi aniqlanganda;

taqiqlangan modda yoki usul — muayyan kasallikni davolash uchun belgilangan va boshqa alternativi (o'rni bosuvchi) mavjud bo'lmagan yagona modda yoki usulbligi aniqlanganda;

taqiqlangan moddadan yoki usuldan foydalanish ehtiyoji tug'ilganda, sportchi avval terapevtik istisno ruxsatnomasi olmasdan ushbu modda yoki usuldan foydalanmaganligini isbotlagan holda, terapevtik istisno ruxsatnomasini olishi mumkin.



**TERAPEVTIK ISTISNO RO'YXATDAN O'TKAZISH
UCHUN BIZ BILAN BOG'LANING**



tue@uznada.uz
info@uznada.uz